TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI 1931 TDIU

# YASHIL IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

№7
MAXSUS SON

## BAKALAVR TALABALARINIG MAQOLALARI TO‘PLAMI



ISSN: 2992-8982
https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/
2025

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

*Elektron nashr. 73 sahifa.*
*E'lon qilishga 2025-yil sentyabrda ruxsat etildi.*

**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o'rinbosari:**
**Karimov Norboy G'aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay'ati:**
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna,** pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Maxmudov Nosir,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Ikrom Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Hakimov Nazar Hakimovich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
**Ali Konak (Ali Ko'nak),** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
**Cham Tat Huei,** falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
**Utayev Uktam Choriyevich,** O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
**Ochilov Farkhod,** O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Axmedov Javohir Jamolovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li,** texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
**Djudi Smetana,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Krissi Lyuis,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Glazova Marina Viktorovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Sevil Piriyeva Karaman,** falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li,** TDIU ITI departamenti rahbari
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li,** TDIU katta o'qituvchisi

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Editorial board:**
**Salimov Okil Umrzokovich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Rae Kwon Chung, South Korea,** Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
**Osman Mesten,** Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Sayfullo Normatovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Siddikova Sadokat Gafforovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Makhmudov Nosir,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Samadov Askarjon Nishonovich,** Candidate of Economic Sciences, Professor
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Ikrom Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khakimov Nazar Khakimovich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
**Ali Konak,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
**Cham Tat Huei,** Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Utayev Uktam Choriyevich,** Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
**Ochilov Farkhod,** Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Akhmedov Javokhir Jamolovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
**Judi Smetana,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Chrissy Lewis,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Glazova Marina Viktorovna,** Candidate of Economic Sciences (Moscow)
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Sevil Piriyeva Karaman,** Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli,** Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli,** Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Po‘latov Baxtiyor Alimovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Rustamov Ilhomiddin,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**G‘afurov Doniyor Orifovich,** pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Fayziyev Oybek Raximovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** katta o‘qituvchi
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:
**Berkinov Bazarbay,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khalikov Suyun Ravshanovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Rustamov Ilkhomiddin,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Kamilova Iroda Khusniddinovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
**Gafurov Doniyor Orifovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
**Fayziyev Oybek Rakhimovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** Senior Lecturer
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zR Tabiat resurslari vazirligi, O‘zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:
““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 28-fevraldagi 333/5-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

# MUNDARIJA

METHODS USED IN BUSINESS DECISION-MAKING ....10
**Ochildiev Bekhruz To‘lqin ogli, Safarov Alisher**

YASHIRIN IQTISODIYOTNING AMALIY TAHLILI O‘ZBEKISTON MIQYOSIDA VA UNING XUFYONA JIHATI ....15
**Yuldasheva Nargiza Rashidovna, Koshanov Abdimurat Azat uli**

BIZNESDA VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DAVRIDA KASBIY KOMMUNIKATSIYALAR ....20
**Gulmurodova Marjona Olimjon qizi, Normamatova Sitora Nozim qizi, Umida Yuldasheva Anasaliyevna**

ИНТЕГРАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЙ МОДЕЛИРОВАНИЯ В ОБРАЗОВАНИЕ ПО БУХГАЛТЕРСКОМУ УЧЁТУ: ПОВЫШЕНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ ДЛЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ....25
**Муратова Наргиза Тахировна**

MIGRATSIYA JARAYONLARI VA IQTISODIY TENGSIZLIK O‘RTASIDAGI O‘ZARO TA’SIR XUSUSIYATLARI ....30
**E.T. Samadova, M.Sh.Raximova**

O‘ZBEKISTON KORXONALARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA MENEJMENTNING YANGI YONDASHUVLARI ....36
**Shoydulova Maftuna Zafar qizi, Meliyeva Nargiza Eshboyevna**

TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR: IMKONIYATLAR VA MUAMMOLAR ....43
**Nosirov Sabohiddin, Abdullayeva Mohiniso, Hafizullayev Javlon, Kasimova Zilola G‘ulomiddinovna**

MEHNAT MIGRATSIYASI VA PUL O‘TKAZMALARINING IQTISODIYOTGA TA’SIRI ....48
**Chintemirova Diyora Shuxrat qizi, Akbarova Barno Shuxratovna**

TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TIJORAT BANKLAR VA MIKROMOLIYA TASHKILOTLARINING O‘RNI ....53
**Mirkomilov Nozimjon Oybek o‘g‘li, Tillayev Xurshid Sulaymon o‘g‘li**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YASHIL MOLIYALASHTIRISHNI JORIY QILISH ORQALI IQTISODIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI ....59
**Inatullayeva Intizor Jamshid qizi, Uchqun Yunusovich O‘roqov**

CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI ....64
**G‘ayratova Zilola G‘anijon qizi, Ibragimov G‘anijon G‘ayratovich**

INSON KAPITALI SIFATINI YAXSHILASH ORQALI MILLIY IQTISODIYOTNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI ....68
**Ismoilova Intizor, To‘ychiboyeva Adiba, Xabibullayeva Mohinur, Berdiqulova Sevinch**

# INSON KAPITALI SIFATINI YAXSHILASH ORQALI MILLIY IQTISODIYOTNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI

**Ismoilova Intizor**
Toshkent kimyo texnologiya instituti
Yangiyer filiali 3-bosqich talabasi

**To'ychiboyeva Adiba**
Toshkent kimyo texnologiya instituti
Yangiyer filiali 2-bosqich talabasi

**Xabibullayeva Mohinur**
Toshkent kimyo texnologiya instituti
Yangiyer filiali 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar:
**Berdiqulova Sevinch**
Toshkent kimyo texnologiya instituti
Yangiyer filiali o'qituvchisi

Annotatsiya: Bugungi iqtisodiyotni harakatlantiruvchi muhim dastaklardan biri – bu inson kapitali hisoblanadi. Inson kapitali zamonaviy iqtisodiyotning eng muhim resurslaridan biri bo'lib, uning sifati milliy iqtisodiyotning barqarorligi va raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillardan sanaladi. Mazkur maqolada inson kapitali tushunchasi, uning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar hamda milliy iqtisodiyot rivojida tutgan o'rni yoritilgan. Xususan, ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, sog'liqni saqlash xizmatlarini takomillashtirish, ilmiy-innovatsion salohiyatni rivojlantirish va mehnat bozorini moslashtirish orqali inson kapitali sifatini oshirish yo'llari tahlil qilingan. Shuningdek, ilg'or xorijiy tajribalar asosida O'zbekiston sharoitida samarali inson kapitalini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari ko'rsatib berilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, inson kapitaliga kiritilgan investitsiyalar nafaqat iqtisodiy o'sishni jadallashtiradi, balki milliy iqtisodiyotning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini ham ta'minlaydi.

Kalit so'zlar: Inson kapitali, sifatni yaxshilash, milliy iqtisodiyot, raqobatbardoshligi, istiqbollar, inson kapitali indeksi (HCI), ta'lim, sog'liq, YaIM o'sishi, inson rivojlanish indeksi (HDI), hayot davomiyligi, o'rtacha ta'lim yillari, kutilayotgan ta'lim yillari, savodxonlik, boshlang'ich ta'lim, o'rta ta'lim, oliy ta'lim, qamrov nisbati, global bilim indeksi (GKI), STEM, global innovatsiya indeksi (GII), investitsiyalar, prognoz, malaka nomuvofiqligi, eksport, texnologik raqobatbardoshlik.

Abstract: One of the important levers driving today's economy is human capital. Human capital is one of the most important resources of the modern economy, and its quality is one of the main factors determining the stability and competitiveness of the national economy. This article discusses the concept of human capital, the factors influencing its formation, and its role in the development of the national economy. In particular, ways to improve the quality of human capital through modernization of the education system, improvement of health services, development of scientific and innovative potential, and adaptation of the labor market are analyzed. Also, based on advanced foreign experience, priority areas for the development of effective human capital in the conditions of Uzbekistan are indicated. The results of the study show that investments in human capital not only accelerate economic growth, but also ensure the competitiveness of the national economy in the international arena.

Key words: Human capital, quality improvement, national economy, competitiveness, prospects, human capital index (HCI), education, health, GDP growth, human development index (HDI), life expectancy, average years of schooling, expected years of schooling, literacy, primary education, secondary education, higher education, coverage ratio, global knowledge index (GKI), STEM, global innovation index (GII), investments, forecast, skills mismatch, exports, technological competitiveness.

Аннотация: Одним из важных рычагов развития современной экономики является человеческий капитал. Человеческий капитал является одним из важнейших ресурсов современной экономики, а его качество — одним из основных факторов, определяющих устойчивость и конкурентоспособность национальной экономики. В данной статье рассматривается понятие человеческого капитала, факторы, влияющие на его формирование, и его роль в развитии национальной экономики. В частности, анализируются пути повышения качества человеческого капитала за счет модернизации системы образования, совершенствования услуг здравоохранения, развития научно-инновационного потенциала и адаптации рынка труда. Также на основе передового зарубежного опыта обозначены приоритетные направления развития эффективного человеческого капитала в условиях Узбекистана. Результаты исследования показывают, что инвестиции в человеческий капитал не только ускоряют экономический рост, но и обеспечивают конкурентоспособность национальной экономики на международной арене.

Ключевые слова: Человеческий капитал, повышение качества, национальная экономика, конкурентоспособность, перспективы, индекс человеческого капитала (ИЧК), образование, здравоохранение, рост ВВП, индекс развития человеческого потенциала (ИЧР), ожидаемая продолжительность жизни, средняя продолжительность обучения, ожидаемая продолжительность обучения, грамотность, начальное образование, среднее образование, высшее образование, коэффициент охвата, глобальный индекс знаний (ГИК), STEM, глобальный индекс инноваций (ГИИ), инвестиции, прогноз, несоответствие навыков, экспорт, технологическая конкурентоспособность.

## KIRISH

Taraqqiy etgan mamlakatlarda inson kapitaliga investitsiyalar mikro va makro darajada raqobatbardoshlikni oshirish va iqtisodiy o‘sishni ta’minlashning muhim omili sifatida ko‘riladi. Inson kapitali sifatini yaxshilash, butun hayot faoliyati davomida uzluksiz ta’lim asosida insonlarning kasbiy ko‘nikma va tajribalarini takomillashtirib borishga qaratilgan strategiyani izchillik asosida amalga oshirishga qaratilgan faoliyati iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlashning muhim sharti hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlash va iqtisodiy o‘sishni jadallashtirishda kichik biznes va tadbirkorlikning o‘rni ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan. Jahon iqtisodiy adabiyotida A. Smit, J. Shumpeter kabi klassik iqtisodchilar tadbirkorlikni innovatsiya va iqtisodiy taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida ko‘rsatadilar. So‘nggi yillarda rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasiga oid ilmiy ishlarda kichik biznes bandlikni oshirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash omili sifatida talqin qilinadi. Xususan, BMT, Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg‘armasi hisobotlarida kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash milliy iqtisodiyotning barqaror o‘sishi uchun muhim yo‘nalish sifatida e’tirof etiladi. O‘zbekistonlik tadqiqotchilar (X. Abdullayev, M. Jo‘rayev va boshqalar) ishlarida ham kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, eksport salohiyatini oshirish va hududiy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishdagi roli alohida tahlil qilingan. So‘nggi davlat dasturlarida ham kichik biznesni kreditlash, soliq yengilliklari va tashqi bozorga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish iqtisodiy barqarorlikning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qayd etilgan. Umuman olganda, mavjud adabiyotlar kichik biznes va tadbirkorlikning iqtisodiy barqarorlikda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ta’kidlaydi, biroq ularning samaradorligini oshirish uchun institutsional islohotlar va bozor infratuzilmasini yanada rivojlantirish zarurligini ham ko‘rsatadi.

## TADQIQOT VA METODOLOGIYASI

Jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan jarayonlar mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar orasida nisbat o‘zgarayotganini yaqqol ko‘rsatmoqda. Jahon banki dunyoning “141 ta davlat misolida global milliy boylik tarkibini tadqiq etish davomida inson kapitalining uning umumiy qiymatidagi ulushi 64 % ni tashkil etishi va so‘nggi 20 yil davomida uning hajmi 55 % ga o‘sgani ma’lum bo‘lgan. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT)ga a’zo bo‘lgan yuqori daromadli mamlakatlarda inson kapitalining milliy boylikdagi ulushi 70 % ni tashkil etgan bo‘lsa, quyi daromadli mamlakatlarda uning hissasi 41 % ga to‘g‘ri keldi” (Lange, Glenn-Marie). Aynan inson kapitalidagi farqlar mamlakat iqtisodiyotining jahon bozoridagi raqobatbardoshligi, aholi turmush farovonligi va umuman, inson taraqqiyotidagi farqlarni belgilab bermoqda, xususan, “mamlakatlar o‘rtasida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadlardagi farqlarning 10-30 % aynan inson kapitali bilan izohlanishi” ma’lum bo‘lmoqda.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekistonda milliy boylik tarkibida inson kapitali ko‘rsatkichining ulushi 62 % ni tashkil qiligani holda, jahon banki mutaxassislarining fikriga ko‘ra dunyo mamlakatlari bo‘yicha milliy boylik tarkibida jismoniy

kapitalning ulushi o'rtacha 16 % ni, tabiiy kapital - 20 % ni, inson kapitali - 64 % ni tashkil etadi (Germaniya, Yaponiya, Shvetsiya singari taraqqiy etgan mamlakatlarda milliy boylik tarkibida inson kapitali ulushi 80% ga yetadi). Bugungi kunda inson kapitalining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlash borasidagi jarayonlarga ta'sirini o'rganishga qiziqish kun sayin ortib borayotganligini kuzatishimiz mumkin. Bu borada tadqiqotchilar tomonidan ko'p sonli ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lsada, "inson kapitali" kategoriyasini aniqlashtirishda muayyan noaniqliklar saqlanib qolmoqda, shu bilan birga, uning tashkil etuvchilariga hanuz to'liq oydinlik kiritilmagan, milliy iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishiga inson kapitalining ta'siri miqdor jihatdan baholanmagan. Yangicha iqtisodiy munosabatlarning tarkibi topishi sharoitida milliy iqtisodiyotda inson kapitalidan foydalanish va uning sifatini ta'minlash uslubiyoti borasida amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarining salmog'ini oshirish muhim.

Inson kapitali sifatini yaxshilash – bu insonning intellektualini, sog'ligini, bilimini, mehnatini va sifatini undirish demakdir. Bunga qo'llab-quvvatlash, sog'liqni saqlash, samarali ish o'rinlari bilan ta'minlash, ijtimoiy himoya va yashash sharoitlarini yaxshilashdir. Buning asosiy yo'nalishlari:

- Zamonaviy ta'lim tizimlarini rivojlantirish;
- Ilm-fan va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash;
- Aholi uchun sifatli tibbiy xizmat ko'rsatishni ta'minlash;
- Yangi texnologiyalarni joriy etish orqali ish unumdorligini oshirish;
- Aholining bilimli qismiga e'tibor qaratish va ularni qo'llab-quvvatlash.

Inson kapitalini rivojlantirisgh jamiyat taraqqiyotining muhim omilidir, chunki bu iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, yangi g'oyalarni rag'batlantirish va ijtimoiy farovonlikni rivojlantirishga yordam beradi.

Jahon bankining Inson kapitali indeksi (HCI) bo'yicha O'zbekiston fuqorosi 18 yoshga to'lganda to'liq ta'lim va sog'liq holatiga ega bo'lsa, uning mahsuldorligi 62% ga baholanadi. Bu Markaziy Osiyo o'rtachasidan (69%) pastroq, ammo quyi o'rta daromadli mamlakatlar o'rtachasidan (48%) yuqori.

1-jadval[1]

| Ko'rsatkich | Qiymat | Yil | Izoh |
|---|---|---|---|
| HCI (0–1 shkalasi) | 0.62 | 2020 | Bolaning kutilayotgan mahsuldorligi; ta'lim va sog'liq xavflari hisobga olingan. |
| Ta'lim kapitaliga 1% investitsiya | +1.2% o'sish | 2019–2023 | Ta'lim indeksini 1% oshirish YaIMni 1.6% ga ko'tarishi mumkin. |

Ta'lim va sog'liqqa investitsiyalarni ko'paytirish orqali HCI ni 0.7 ga yetkazish iqtisodiy o'sishni 2–3% ga tezlashtirishi mumkin, chunki inson kapitali YaIM o'sishiga 20–30% hissa qo'shadi. O'zbekiston HDI bo'yicha yuqori rivojlanish toifasida, ammo raqobatbardoshlikni oshirish uchun ta'lim sifatini yaxshilash zarur. 2000–2019 yillarda HDI 20.2% oshgan.

2-jadval[2]

| Ko'rsatkich | Qiymat | Yil | O'zgarish (2000–2019) |
|---|---|---|---|
| HDI (0–1 shkalasi) | 0.720 | 2019 | +20.2% umumiy o'sish |
| Hayot davomiyligi (yil) | 71.9 | 2019 | +5.2 yil |
| O'rtacha ta'lim yillari | 11.4 | 2019 | +2.7 yil |
| Kutilayotgan ta'lim yillari | 13.5 | 2019 | +0.8 yil |
| Aholi jon boshiga YaIM o'sishi | +115.6% | 1990–2019 | Iqtisodiy transformatsiya natijasida |

Ta'lim yillarini 1 yilga oshirish YaIM o'sishini 1.5–2% ga rag'batlantirishi mumkin, bu esa raqobatbardoshlikni (masalan, eksport va innovatsiyalar orqali) kuchaytiradi. O'zbekiston savodxonligi yuqori, ammo oliy ta'lim qamrovi past – bu malaka yetishmovchiligiga olib keladi. 2025 yilga prognoz bo'yicha, ta'limga investitsiyalar qamrovni 10–15% ga oshirishi kutilmoqda.

1 data.worldbank.org
2 data.worldbank.org

3-jadval[3]

| Ta'lim darajasi | Qamrov nisbati (%) | Yil | Izoh |
|---|---|---|---|
| Savodxonlik (umumiy) | 100 | 2024 | UNESCO ma'lumotlari bo'yicha. |
| Boshlang'ich ta'lim (gross enrollment ratio) | ~98 | 2019 | Yuqori qamrov, ammo sifat muammolari. |
| O'rta ta'lim (gross enrollment ratio) | ~92 | 2019 | Gender parity indeksi 0.98. |
| Oliy ta'lim (gross enrollment ratio) | 9.2 | 2017 | Past ko'rsatkich; 2024 yilda ~12% ga o'sish kutilmoqda. |
| Boshlang'ichdan oliygacha (erkaklar) | 73.7 | 2019 | Jami qamrov; ayollar uchun ~70%. |

Oliy ta'lim qamrovini 20% ga yetkazish mehnat bozoridagi malakali kadrlar ulushini 15% ga oshirib, iqtisodiy samaradorlikni 5–7% yaxshilashi mumkin.

O'zbekiston Global bilim indeksi (GKI) bo'yicha o'rta darajada, ammo ta'lim va STEM (fan, texnologiya, muhandislik, matematika) bo'yicha kuchli tomonlarga ega. Innovatsiya indeksi past, lekin inson kapitali ustunligi bor.

4-jadval[4]

| Indeks | Reyting | Ball (0–100) | Yil | Kuchli tomonlar |
|---|---|---|---|---|
| Global bilim indeksi (GKI) | 78/141 | 45.9 | 2024 | Oliy o'rta ta'lim tugatish darajasi, STEM bitiruvchilar ulushi, yuqori ta'limli ishsizlik pastligi. |
| Global innovatsiya indeksi (GII) | 83/133 | 24.7 | 2024 | Inson kapitali va tadqiqotlar ustuni (mintaqaviy o'rtachadan yuqori); chiqishlar reytingi 92-o'rin. |

STEM ta'limiga investitsiyalar GII ni 70-o'ringa ko'tarib, eksport va texnologik raqobatbardoshlikni 10–20% oshirishi mumkin. 2025 yilda YaIM o'sishi 5.9% prognoz qilinmoqda, shundan 1–2% inson kapitaliga bog'liq.

Inson kapitali umumiy ko'rsatkichlari O'zbekistonning inson kapitali indeksi 2020 yilda 0,623 (62% samaradorlik) ni tashkil etdi, ya'ni tug'ilgan bola to'liq ta'lim va sog'liq xizmatlari bilan o'z potentsialining 62% ini ro'yobga chiqaradi. Bu Yevropa va Markaziy Osiyo o'rtacha ko'rsatkichidan (0,69) past, lekin o'rta daromadli mamlakatlardan (0,48) yuqori. Ta'lim va sog'liqqa investitsiyalarni oshirish orqali 2030 yilga bu ko'rsatkichni 0,7 ga yetkazish mumkin. Inson rivojlanishi indeksi (HDI) 2024 yilda 0,727 ga yetdi, bu 189 mamlakat orasida 101-o'rinni egallaydi. 2000–2019 yillarda HDI 20,2% ga o'sdi (0,599 dan 0,720 gacha), bu esa ta'lim va sog'liq sohasidagi yaxshilanishlar iqtisodiy o'sishni 1,6% ga oshirishi mumkinligini ko'rsatadi. Aholining o'rtacha yoshi 29 yosh (2023 yil), umumiy aholi soni 37 million kishi, 60% yoshlardir. Yoshlarni malaka bilan ta'minlash iqtisodiy o'sishni 4–6% ga tezlashtirishi mumkin. Umr umidi 2023 yilda 74,7 yoshni tashkil etdi, 2030 yilga 78 yoshga yetishi kutilmoqda. 1990–2019 yillarda umr umidi 5,2 yoshga oshgan. Sog'liqqa qo'yilgan har bir dollar investitsiya 3–6 dollar daromad keltiradi.

Maktabgacha ta'lim qamrovi 2022-yilda 67% ga yetdi, bu 2017-yildagi 27,7% dan sezilarli o'sish. 2026-yilga bu ko'rsatkichni 80% ga yetkazish rejalashtirilgan, 7000 dan ortiq nodavlat bolalar bog'chasi ochilishi ishchi kuchi sifatini oshirib, mehnat unumdorligini 1,2% ga ko'taradi. Oliy ta'lim qamrovi 2021-yilda 28% ga yetdi, bu 2017-yilga nisbatan 3 baravar o'sish. 2026-yilga 50% ga yetkazish maqsad qilingan, oliy ta'lim muassasalari soni 70 dan 154 taga ko'paydi. Ta'limga qo'yilgan har 1% investitsiya YaIMni 1,6% ga oshiradi. Ta'lim byudjeti ulushi 2021-yilda YaIMning 4,8% ini tashkil etdi, davlat grantlari 2 baravar oshirildi, 500 xorijiy mutaxassis jalb qilindi va 1000 pedagog chet elga o'qishga yuborildi, bu raqamli iqtisodiyotga tayyorgarlikni kuchaytiradi. 2022–2023-yillarda 11 694 yosh raqamli malaka o'rgandi, ulardan 6000 nafari ish topdi, 50% ayollar va 25% qishloq aholisi edi. Bu loyihalar 43 ta yoshlar biznesini kengaytirib, ish o'rinlari yaratdi, raqobatbardoshlikni 2,5 baravar oshirdi. Kasb-hunar ta'limi bo'yicha monosentrlarda 3400 dan ortiq kishi o'qitildi, WorldSkills standartlariga moslashish orqali soch turmagi, ovqat pishirish va santexnika kabi sohalarda malaka ishga joylashishni 92,6% ga oshirdi.

2024-yilda aholining 27,6% sport bilan shug'ullandi, 2026-yilga bu ko'rsatkichni 33% ga yetkazish rejalashtirilgan. 8 million yoshni jalb qilish va 5000 sport inshooti qurish sog'lom ishchi kuchi orqali iqtisodiy o'sishni 64% ga ta'minlaydi. 2024-yil Parij Olimpiadasida O'zbekiston 13 medal (8 oltin) oldi, bu xalqaro raqobatbardoshlikni ko'rsatadi. Tibbiy xizmatlar 2025-yilga to'liq raqamlashtiriladi, Namangan va Farg'onada tibbiy klasterlar ochiladi, dori-darmon byudjeti 3 baravar oshirildi, bu umr umidini 78 yoshga yetkazadi. Mahalliy dori ishlab chiqarish 2025-yilga 80% ga yetadi, xususiy sektor ulushi 25% ga oshadi, shifokorlar maoshi 1000

3 thedocs.worldbank.org
4 thedocs.worldbank.org

dollarga yetkaziladi, bu sog'liq xarajatlari tufayli iqtisodiy yo'qotishlarni 15% ga kamaytiradi. 2024-yil yanvar holatiga ko'ra, 48 658 kishi OIV bilan yashaydi, ulardan 84,4% davolanmoqda, stigmani kamaytirish ishchi kuchi yo'qotishini oldini oladi.

O'zbekiston iqtisodiyoti 2010–2022-yillarda o'rtacha 6,5% (aholi boshiga 4,2%) o'sdi, inson kapitali rivojlanayotgan mamlakatlar o'sishining 64% ini ta'minlaydi. 2025-yilga o'sish 5,9% bo'lishi kutilmoqda. Raqobatbardoshlik indeksi (BTI) 2024-yilda 4,79 ball (137 mamlakatdan 85-o'rin) ni tashkil etdi, bozor raqobati kuchaymoqda, inson kapitali yaxshilanishi tufayli to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (FDI) YaIMning 3,8% ini tashkil etdi. Global innovatsiyalar indeksi (GII) 2024-yilda 83-o'rin (24,7%) bo'lib, 122-o'rindan 86-o'ringa ko'tarildi, inson kapitali va tadqiqotlar bo'yicha 81-o'rin egallandi, 2030-yilga Top-50 ga kirish rejalashtirilgan. Tashqi savdo aylanmasi 2022-yilda 50 milliard dollarga yetdi, bu 2016-yildagi 24 milliard dollardan 2 baravar o'sish. Yevropa GSP+ tizimiga kirish 6000 mahsulotni bojsiz eksport qilish imkonini berdi. FDI 2022-yilda 11,1 milliard dollarga yetdi, bu prognozdan 113% oshdi, Xitoy, Rossiya, Turkiya va Germaniya asosiy investorlar sifatida malakali ishchi kuchini jalb qildi. Ayollar tadbirkorligiga 2023-yilda 340 million dollar kredit ajratildi, 225 ming loyiha moliyalashtirildi, 40 ming ayol 14 million dollar subsidiyadan foydalandi, ayollar mehnat ishtiroki 39,4% ni tashkil etdi, bu gender tengligi orqali raqobatbardoshlikni oshirdi. Kambag'allik darajasi 2022-yilda 15,7% ga tushdi (2021 yilda 17%), 2030-yilga 7% ga yetkazish rejalashtirilgan. Ishsizlik darajasi 2022-yilda 8,8% ga tushdi (2021-yilda 9,5%), minimal nafaqa 3,2 baravar oshirildi, yoshlar malakasi orqali ish o'rinlari yaratildi. 2023-yilda 350 million dollarlik SDG obligatsiyasi atrof-muhit, transport va sanitariya loyihalariga yo'naltirildi, ishtirokchi kompaniyalar savdosi 92,6% oshdi. Surxondaryoda byudjet ishtiroki 230 million dollar (35 ming loyiha, 11 million ovoz) ni tashkil etdi, bu mahalliy rivojlanish va raqobatbardoshlikni kuchaytirdi.

Inson kapitali sifatini yaxshilash, xususan, ta'limga qo'yilgan har 1% investitsiya YaIMni 1,6% ga oshiradi. "O'zbekiston-2030" strategiyasi doirasida ta'lim va sog'liqqa ajratilgan byudjet 4,3 baravar oshdi, bu FDI va eksportni oshirib, global reytinglarda (GII, HDI) yaxshilanishlarga olib keldi. 2025–2030-yillarda raqamli iqtisodiyot va yoshlar malakasini rivojlantirish orqali YaIM o'sishi 6–7% ga yetishi mumkin.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Inson kapitali sifatini yaxshilash O'zbekiston milliy iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishda strategik ahamiyatga ega bo'lib, bu jarayon ta'lim, sog'liq va malaka rivoji orqali amalga oshirilishi mumkin. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, Inson kapitali indeksi (HCI) 0.62 darajasida bo'lib, uni 0.7 ga yetkazish iqtisodiy o'sishni 2–3% ga tezlashtirishi va YaIM ga 20–30% hissa qo'shishi kutilmoqda. HDI (0.720) va Global bilim indeksi (45.9 ball) ko'rsatkichlari yuqori savodxonlik va ta'lim qamrovi (98%) ga qaramay, oliy ta'lim va innovatsiyalar sohasidagi rivojlanisga ahamiyat qaralmoqda, bu esa malaka nomuvofiqligiga va ishsizlikka olib kelmoqda.

Ushbu istiqbollar doirasida, 2025 yilga prognoz etilgan 5.9% YaIM o'sishidan 1–2% qismi inson kapitaliga investitsiyalarga bog'liq. STEM ta'limini kuchaytirish va oliy ta'lim qamrovini 20% ga yetkazish orqali O'zbekiston Global innovatsiya indeksi bo'yicha reytingini 70-o'ringa ko'tarib, eksport va texnologik raqobatbardoshlikni 10–20% oshirishi mumkin. Natijada, 2030 yilga HDI ni 0.8 ga yetkazish orqali mamlakat yuqori o'rta daromadli guruhga o'tib, barqaror rivojlanishga erishadi. Shuning uchun, davlat va xususiy sektor hamkorligida ta'lim va sog'liqqa qo'shimcha investitsiyalar – bu nafaqat iqtisodiy, balki jamiyatning kelajagini ta'minlashning kaliti bo'lib qoladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. World Bank. (2020). Human Capital Index (HCI) – Uzbekistan. data.worldbank.org
2. World Bank. (2023). Human Capital Country Brief – Uzbekistan. thedocs.worldbank.org
3. UNDP. (2019). Human Development Report: Uzbekistan. hdr.undp.org va undp.org/uzbekistan
4. UNESCO. (2019). Global Education Monitoring Report: Uzbekistan Factsheet. gem-report-2019.unesco.org
5. UNESCO Institute for Statistics. (2019–2024). UIS Data Browser. databrowser.uis.unesco.org
6. Mohammed bin Rashid Al Maktoum Knowledge Foundation. (2024). Global Knowledge Index: Uzbekistan Profile. knowledge4all.com
7. WIPO. (2024). Global Innovation Index: Uzbekistan Ranking. wipo.int
8. World Bank. (2025). Uzbekistan Economic Overview. worldbank.org
9. IMF. (2025). Republic of Uzbekistan Country Data. imf.org
10. BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP): Inson rivojlanishi indeksi (HDI), raqamli malaka va ayollar tadbirkorligi bo'yicha loyihalar, 2023–2024 yillar.
11. ResearchGate: O'zbekistonning inson kapitali va iqtisodiy raqobatbardoshlik bo'yicha ilmiy maqolalar, 2020–2024 yillar.
12. Global innovatsiyalar indeksi (GII): O'zbekistonning innovatsiya reytingi va inson kapitali bo'yicha ma'lumotlar, 2024 yil.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi: "O'zbekiston-2030" strategiyasi va ta'lim, sog'liqni saqlash bo'yicha investitsiya ma'lumotlari, 2023 yil.
14. Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO): Ishsizlik darajasi va mehnat bozori statistikasi, 2022–2023 yillar.

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o‘g‘li


## 7-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to‘plami


© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz